SUNMI P3 TERMINALLARINI ULASH VA AYLANMANI RAG‘BATLANTIRISH BO‘YICHA AKSIYA O‘TKAZISH YUZASIDAN OMMAVIY OFERTA

1-bo‘lim. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – Oferta) banklarning terminal jihozlarini ulash va aylanmani rag‘batlantirish bo‘yicha aksiya (keyingi o‘rinlarda – Aksiya)da qatnashish shartlarini, g‘olibni aniqlash va mukofot to‘lash tartibini, tomonlar huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

1.2. Aksiya tashkilotchisi “Milliy banklararo protsessing markazi” AJ, HUMO milliy to‘lov tizimi operatori (keyingi o‘rinlarda – HUMO MTT) sanaladi.

1.3. Oferta O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha amaldagi litsenziyasiga ega hamda Tashkilotchi bilan tuzilgan shartnoma asosida HUMO MTTda ekvayringni amalga oshiruvchi barcha banklari (keyingi o‘rinlarda – Qatnashchilar)ga yo‘naltirilgan.

1.4. Tashkilotchi va Qatnashchi keyingi o‘rinlarda birgalikda Tomonlar, alohida esa – tomon deb ataladi. Aksiyada qatnashish – ixtiyoriy. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa turdagi o‘yin emas.

1.5. Aksiya o‘tkazilishi hududi – O‘zbekiston Respublikasi. Aksiyada qatnashish uchun terminallarni ulash davri – 2026-yil 16-oktabr soat 00.00.00 dan 2027-yil 31-yanvar soat 23.59.59 gacha, shu vaqt ham kiradi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya o‘tkazilishi davri).

1.6. Aksiya o‘tkazilishi davri yakunlanganda Aksiyaga yangi terminallar qabuli to‘xtatiladi lekin shartlarni tekshirish, yakunlar chiqarish, hujjatlarni rasmiylashtirish va ko‘rsatilgan davrda ulangan terminallar bo‘yicha to‘lovlar to‘xtatilmaydi. Oferta Aksiyaga binoan Tomonlar zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilguniga qadar amal qiladi.

1.7. Aksiyaning umumiy mukofot jamg‘armasi Tashkilotchining ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

1.8. Oferta Tashkilotchining www.humocard.uz rasmiy saytida joylashtiriladi. Tashkilotchining kontaktlari va rekvizitlari Ofertaning 4-bo‘limida keltirilgan.

2-bo‘lim. Aksiya shartlari

2.1 Ofertani akseptlash tartibi

2.1.1. Aksiya o‘tkazilishi davrida Qatnashchi tomonidan yangi SUNMI P3 terminalini va uning modifikatsiyasini (keyingi o‘rinlarda – SUNMI P3) ro‘yxatdan o‘tkazish, uni HUMO MTT protsessingiga ulash Ofertaning to‘liq va istisnosiz aksepti sanaladi. Aksept O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366, 369 va 370-moddalariga muvofiq ko‘rsatilgan harakatlarni sodir etish orqali amalga oshiriladi.
Aksept sanasi Ofertaning 2.1.1 bandiga muvofiq keluvchi qatnashchining ilk SUNMI P3 yangi terminalini Tashkilotchining tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish va ulash sanasi hisoblanadi. Ushbu sanadan Tashkilotchi va Qatnashchi o‘rtasida Oferta shartlari asosidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Alohida aksept, qo‘shilish to‘g‘risidagi ariza, bildirishnoma yoki alohida shartnomani imzolash talab etilmaydi.

2.1.2. Aksiya o‘tkazilishi davrida Qatnashchi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan va ulangan har bir keyingi yangi SUNMI P3 terminali avtomatik ravishda hisobga olinadi. Bunday terminalni Aksiyaga qo‘shish to‘g‘risida qo‘shimcha xabarnoma talab qilinmaydi. Terminalni ro‘yxatdan o‘tkazish Aksiyada qatnashish huquqini beradi; mukofot olish huquqi Ofertaning 2.2 bandi shartlari bajarilganda yuzaga keladi.

2.2 Terminallarni ulash va mukofot miqdori

2.2.1. Aksiya o‘tkazilishi davrida birinchi marta ro‘yxatdan o‘tkazilgan va HUMO MTT protsessingiga ulangan hamda Tashkilotchi tizimida bank-ekvayer sifatida Qatnashchiga biriktirilgan SUNMI P3 modelidagi har bir yangi POS-terminal (keyingi o‘rinlarda – Terminal) Aksiyada hisobga olinadi. Terminal zavod seriya raqami (S/N) ga ko‘ra identifikatsiyalanadi. Yangi tizimli identifikatorlarni biriktirish, takroriy ro‘yxatdan o‘tkazish yoki xuddi o‘sha Terminalni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish takroriy mukofot olish huquqini bermaydi.

2.2.2. Terminal ulangan sana sifatida uning ro‘yxatdan o‘tkazilishi yakunlangan va Tashkilotchi tizimida qayd etilib, HUMO MTT protsessingiga ulangan sana tan olinadi. Ulanish sanasini o‘z ichiga olgan kalendar oyi ulanish oyi deb sanaladi. Ulangandan keyingi birinchi to‘liq kalendar oy deb bevosita Ulanish oyidan keyingi oy tan olinadi.

2.2.3. Terminal aylanmasi – muvaffaqiyatli amalga oshirilgan va Tashkilotchining protsessing tizimida hisobga olingan HUMO MTT va Terminalda ekvayringi mumkin bo‘lgan boshqa to‘lov tizimilarining orqali bank kartalari bilan tegishli Terminal orqali belgilangan hisob davrida, so‘mda tovarlar va xizmatlar haqini to‘lash amaliyotlari (bekor qilingan amaliyotlar va qaytarmalar chiqarib tashlangan holda). Aylanma har bir Terminal bo‘yicha alohida belgilanadi; belgilangan chegaraga erishish uchun turli Terminallarning aylanmalarini jamlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.2.4. Tashkilotchi Qatnashchiga, Terminal ulangan sanadan boshlab to keyingi kalendar oy yakuniga qadar (shu sana ham kiradi) bo‘lgan davrda 10 000 000 (o‘n million) so‘mdan kam bo‘lmagan aylanmaga erishish sharti bajarilganda, har bir Terminal uchun 300 000 (uch yuz ming) so‘m (QQS bilan hisoblaganda) miqdorida bir martalik mukofot beradi. Mukofot har bir Terminal uchun bir marta beriladi.

2.2.5. Agar Terminal aylanmasi ulangandan keyin birinchi to‘liq kalendar oy yakuniga ko‘ra 70 000 000 (yetmish million) so‘mdan oshsa, ushbu Terminal uchun Tashkilotchi Qatnashchiga 200 000 (ikki yuz ming) so‘m (QQS bilan hisoblaganda) miqdorida qo‘shimcha bir martalik mukofot beradi. 70 000 000 (yetmish million) so‘mga teng miqdordagi aylanma qo‘shimcha mukofot olish huquqini bermaydi. Qo‘shimcha mukofot Ofertaning 2.2.4-bandida ko‘zda tutilgan mukofotga qo‘shimcha ravishda, har bir Terminal uchun bir marta to‘lanadi.

2.2.6. Masalan, 2026-yil 20-oktabrda ulangan Terminal uchun 2.2.4-band sharti 2026-yil 20-oktabrdan 30-noyabrgacha (shu sana ham kiradi) bo‘lgan aylanma bo‘yicha, 2.2.5-band sharti esa – faqat 2026-yil noyabr oyidagi aylanma bo‘yicha tekshiriladi. 2027-yil yanvar oyida ulangan Terminal uchun ikkala shart 2027-yil fevral oyi yakunlangandan keyin, Ofertaning 2.2.4 va 2.2.5-bandlarida ko‘zda tutilgan turli hisob davrlari inobatga olingan holda tekshiriladi.

2.2.7. Aksiya shartlarining bajarilishi, Ulanish sanasi, Terminalning Qatnashchiga tegishliligi va aylanma miqdori protsessing tizimi va tashkilotchi hisobotining, jumladan BI-hisobotlarning ma’lumotlariga ko‘ra aniqlanadi. Hisob banklar, hududlar va Terminallar S/N kesimida, shartlarning bajarilishini, hisoblangan summalarni va amalga oshirilgan to‘lovlarni aks ettirgan holda olib boriladi. Qatnashchi ro‘yxatdan o‘tayotganda taqdim etiladigan ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlaydi.

2.3 Aksiya natijalarini hsioblash tartibi

2.3.1. Aksiya natiajalari tegishli Ulanish oyi Terminallari bo‘yicha har oyda, ulanishdan keyingi birinchi to‘liq kalendar oyi yakunlangandan so‘ng chiqariladi.

2.3.2. Natijalarni chiqarish oyi deb Termina ulangan oydan keyingi birinchi to‘liq kalendar oyining ketidan keluvchi kalendar oyi tan olinadi. Masalan, 2026-yil oktabrda ulangan

Terminallar bo‘yicha, Natijalarni chiqarish oyi 2026-yil dekabr bo‘ladi, 2027-yil yanvarda ulangan Terminallar bo‘yicha esa – 2027-yil mart.

2.3.3. Natijalarni chiqarish oyidan keyingi birinchi 14 (o‘n to‘rt) kalendar kuni davomida Tashkilotchi Qatnashchiga to‘lov miqdori hisoblangan tegishli Ulanish oyi Terminallari bo‘yicha Aksiya natijalari to‘g‘risidagi hisobot (keyingi o‘rinlarda – Hisobot)ni taqdim etadi. Hisobot Qatnashchining nomi, Ulanish oyi, har bir Terminalning S/N va tizimli identifikatori, Ulanish sanasi, joylashtirish hududi, 2.2.4 va 2.2.5-bandlarda ko‘zda tutilgan davrlar uchun alohida aylanma, shartlar bajarilgani, asosiy va qo‘shimcha mukofotlash summalari, avvalda amalga oshirilgan to‘lovlar haqidagi ma’lumotni hamda yakuniy to‘lov summasini o‘z ichiga oladi.

2.3.4. Hisobot Qatnashchiga Tomonlar o‘zaro kelishgan elektron hujjat almashinuvi kanali orqali yoki Qatnashchining amaldagi shartnoma bo‘yicha Tashkilotchi bilan o‘zaro aloqa uchun ishlatiladigan elektron pochtasi manziliga yuboriladi. Hisobotni qabul qilish sanasi tegishli tizimda yetkazilgani tasdiqlanishi bilan yoki Qatnashchi tomonidan qabul qilib olganini tasdiqlash orqali belgilanadi.

2.3.5. Hisobotda ko‘rsatilgan to‘lov summasi Qatnashchi hisob-kitoblari bilan 20 (yigirma) foizdan ko‘proqqa farq qilgan taqdirda, to‘lovning to‘g‘ri miqdorini belgilash uchun Tashkilotchi va Qatnashchining vakillaridan iborat ishchi guruh tuziladi. Qatnashchi tashkilotchiga to‘g‘rilangan to‘lov miqdori ko‘rsatilgan, hisob-kitob va tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek ishchi guruhdagi Qatnashchining vakillari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar tirkalgan aniqlik kirituvchi hisobot yuboradi. Farq foizi Tashkilotchining Hsioboti bo‘yicha to‘lov summasiga nisbatan aniqlanadi; agar bu summa nolga teng bo‘lsa, Qatnashchi esa musbat summani e’lon qilsa, o‘rtadagi farq ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘ladi.

2.3.6. Ishchi guruhning Qarori Qatnashchi tomonidan Hisobot olingan sanadan boshlab 14 (o‘n to‘rt) kalendar kuni davomida qabul qilinadi. Ishchi guruh qaroriga ko‘ra to‘lov summasi to‘g‘rilanadi yoki o‘zgartirishsiz qoldiriladi. Agar ishchi guruhni tashkil etish Tomonlardan birining aybi bilan imkonsiz bo‘lsa, ishchi guruhni tuzish va uning qaror qabul qilishi uchun sharoitni ta’minlagan Tomon foydasiga qaror qabul qilingan sanaladi. Agar ishchi guruh belgilangan muddatda kelishuvga erishmasa, to‘g‘rilash masalasi Ofertaning 3.9-bandiga muvofiq, sud tartibida hal etiladi.

2.3.7. To‘lov summasining farqi 20 (yigirma) foiz yoki undan kamni tashkil etganda, Hisobot Qatnashchi tomonidan Tashkilotchining tahririda qabul qilingan sanaladi va bunday farq Tashkilotchi tomonidan ko‘rib chiqilmaydi. Ishchi guruh qaroriga ko‘ra to‘lov summasi oshganda Tashkilotchi birlamchi va yakuniy summa o‘rtasidagi farqni Ofertaning 2.4.4-bandidagi tartibga ko‘ra to‘laydi.

2.4 Hujjatlarni rasmiylashtirish va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

2.4.1. Aksiya natijalariga ko‘ra Tashkilotchi tomonidan tayyorlangan Hisobot Ofertaning 2.3-bandida belgilangan tartibda Qatnashchi bilan kelishilgan sanaladi va Qatnashchi tomonidan Tashkilotchiga hisob-faktura taqdim etilishida to‘lov uchun asos sanaladi. Hisobotni kelishish va hujjatlarni rasmiylashtirish Ofertaning 2.3.5–2.3.7-bandlari tartibida to‘g‘rilashga to‘sqinlik qilmaydi.

2.4.2. Hisobot asosida Tomonlar Ofertaga 1-ilovadagi shaklda Aksiya shartlari bajarilgani va mukofot hisoblangani to‘g‘risida dalolatnomani rasmiylashtiradilar. Qatnashchi Tashkilotchiga Hisobotda ko‘rsatilgan mukofot summasiga hisob-faktura taqdim etadi. Dalolatnoma Aksiya shartlari bajarilishi natijasini qayd etadi va Ofertaning alohida aksepti sanalmaydi. Dalolatnomani rasmiylashtirish Ofertaning 2.4.3-bandida belgilangan to‘lov muddatini o‘zgartirmaydi.

2.4.3. To‘lov Qatnashchi tomonidan Tashkilotchining tegishli Hisoboti asosida hisob-faktura rasmiylashtirilgan sanadan keyin 14 (o‘n to‘rt) kalendar kun davomida, Qatnashchining hisob-

fakturada ko‘rsatilgan hisob raqamiga pul mablag‘larini naqdsiz o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Qatnashchi hisob-fakturani u rasmiylashtirilgan kunda o‘zaro qo‘llaniladigan elektron hujjat almashinuvi kanali orqali Tashkilotchiga yuboradi.

2.4.4. Ishchi guruhning summani to‘g‘rilash to‘g‘risidagi qarori Qatnashchi tomonidan qo‘shimcha (to‘g‘rilovchi) hisob-faktura taqdim etilishi va tegishli dalolatnoma to‘g‘rilanishini rasmiylashtirish uchun asos bo‘ladi. To‘lov summasi oshganda farq Tashkilotchi tomonidan ishchi guruh qarori asosida hisob-faktura rasmiylashtirilgan sanadan keyin 14 (o‘n to‘rt) kalendar kun ichida to‘lanadi. To‘lov summasi qisqarganda hisob-kitoblarning tegishlicha to‘g‘rilanishi amalga oshiriladi; ortiqcha o‘tkazilgan summani qaytarish yoki uni hisob-kitob qilish Tomonlar tarafidan qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

2.4.5. Hisob-fakturalar va boshqa birlamchi hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi. QQS hujjatlarda amaldagi soliq rejimiga muvofiq aks ettiriladi. Asosiy mukofotga hisoblanadigan QQS 2.2.4-bandda belgilangan summaga kiritiladi va uni oshirmaydi. Har bir Qatnashchi o‘z soliq majburiyatlarini o‘zi mustaqil bajaradi.

3-bo‘lim. Aksiyaning boshqa shartlari

3.1. Tashkilotchi Terminallarning xolis hisobga olinishini, Aksiya shartlari bajarilganini tekshirishni, Hisobotlar tayyorlanishini va to‘lovlar Ofertada keltirilgan tartibda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Qatnashchi tekshirish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi va Ofertada keltirilgan tartibida hujjatlarni rasmiylashtiradi.

3.2. Tashkilotchi Aksiya shartlarini o‘zgartirish yoki to‘ldirish, Aksiya o‘tkazilishi muddatini uzaytirish yoki qisqartirish, shuningdek yangi Terminallarning Aksiyaga qo‘shishni to‘xtatib turishi yoki bekor qilishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar Tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi va uning rasmiy saytida e’lon qilinadi, e’lon qilingan sanadan yoki e’londa ko‘rsatilgan boshqa sanadan kuchga kiradi. Tashkilotchi qabul qilingan o‘zgarishlar to‘g‘risida banklarni ham o‘zaro qo‘llaniladigan kanallar orqali xabardor qiladi.

3.3. Aksiya shartlaridagi o‘zgarishlar, agar Tomonlar boshqa tartibga kelishgan bo‘lmasalar, o‘zgarishlar kuchga kirishidan oldin Aksiyaga qo‘shilgan Terminallarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Yangi Terminallarni qo‘shishni to‘xtatish Tashkilotchini avvalda qo‘shilgan Teminallar bo‘yicha, ular ulangan Sanada amal qilgan shartlar asosida natijalarni tekshirish va majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

3.4. Tashkilotchi vijdonsiz qatnashishga to‘sqinlik qiluvchi texnik cheklovlarni kiritish va ma’lumotlar haqqoniyligini tekshirish huquqiga ega. Hujjatlar qalbakiligi aniqlanganda, bitta Terminal mukofot olish uchun takroriy taqdim etilganda yoki aylanma sun’iy shakllantirilganda Tashkilotchi, Qatnashchining hisobdan chiqarish asoslari haqida xabardor qilib, tegishli Terminallar va amaliyotlarni hisobdan chiqarish huquqiga ega. Qatnashchi izohlar va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etish huquqiga ega; kelishmovchiliklar Ofertada keltirilgan tartibda hal etiladi.

3.5. Tomonlar shaxsga doir ma’lumotlar va bank sirini himoya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qiladilar. Qatnashchi tashkilotchiga Aksiya o‘tkazilishi uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etish uchun qonuniy asos mavjudligini ta’minlaydi. Tashkilotchi Ofertani bajarish uchun ham ma’lumotlardan shunday asoslar doirasida foydalanadi. Oferta aksepti o‘z holicha mijoz roziligining o‘rnini bosa olmaydi, agar qonunchilik shunday rozilikni talab qilsa.

3.6. Qatnashchining Terminallarni ro‘yxatdan o‘tkazishdagi va ma’lumotlarni taqdim etishdagi xatolari oqibatlari, jumladan bunday xatolar tufayli ko‘rilgan zararlar uchun Tashkilotchi javob bermaydi. Tomonlar o‘z majburiyatlarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka egalar.

3.7. Tomon, tegishli tartibda tasdiqlangan yengib bo‘lmas kuch holatlari tufayli ro‘y berganda, majburiyatlarni bajarmagani uchun javobgarlikdan ozod bo‘ladi. Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar to‘g‘risida va ularning majburiyatlarni bajarishga ta’siri to‘g‘risida xabardor qiladi. Pul mablag‘larning yetarli emasligi o‘z holicha yengib bo‘lmas kuch holati sanalmaydi.

3.8. Oferta rus tilida tuzildi. Oferta bilan tartibga solinmagan Tomonlarning munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ofertaning ayrim qoidalarining kuchdan qolishi boshqa qoidalarining amal qilishiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

3.9. Tomonlar kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal etishga intiladilar. Hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rib chiqiladi.

3.10. 1-ilova Ofertaning uzviy qismi sanaladi. Aksiya natijalari bo‘yichaa hujjatlar imzolanishi tegishli natijalarni va hisob-kitoblarni tasdiqlaydi hamda bankning Ofertaga qo‘shilishining sharti sanalmaydi.

4-bo‘lim. Tashkilotchi rekvizitlari

“Milliy banklararo protsessing markazi” AJ
Manzil: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘ch., 178/1.
STIR: 302900674. IFUT: 63110.
Hisob raqami: 20208000700296870001 “Octobank” Amaliyot bo‘limi. MFO: 00980.
Elektron pochta: info@nmpc.uz.
Rasmiy sayt: www.humocard.uz.
Telefon: +998 78 888 85 85.

SUNMI P3
terminallarini ulash va aylanmani
rag‘batlantirish bo‘yicha aksiya o‘tkazish
yuzasidan ommaviy ofertaga 1-ilova

Shakl

**AKSIYA SHARTLARI BAJARILGANI
VA MUKOFOT HISOBLANGANI
TO‘G‘RISIDAGI DALOLATNOMA**

№ _____ Toshkent “___“ _____20___y.

Keyingi o‘rinlarda “Tashkilotchi” deb ataluvchi “Milliy banklararo protsessing markazi” AJ, _____ asosida ish ko‘ruvchi _____ shaxsida va “Qatnashchi” deb ataluvchi _____, _____ asosida ish ko‘ruvchi _____ shaxsida quyidagilar to‘g‘risida mazkur dalolatnomani tuzdilar:

1. Qatnashchi 20___yil _____ ulanish oyi Terminallar bo‘yicha Aksiya shartlarini bajardi. Natijalar va mukofot miqdori Tashkilotchining “____“ _____ 20____ yildagi ___- son Hisoboti bilan belgilangan bo‘lib, u mazkur dalolatnomaga tirkaladi va uning uzviy qismi sanaladi.

2. Hisobot bo‘yicha mukofotlashning yig‘ma hisoboti:

Mukofotlash turi	**Terminallar soni**	**Mukofotlash summasi, so‘m**
Ofertaning 2.2.4- bandiga ko‘ra asosiy		
Ofertaning 2.2.5- bandiga ko‘ra qo‘shimcha		
Jami hisoblangan	—	
Ko‘rsatilgan Terminallar bo‘yicha avvalda to‘langan	—	
Mazkur dalolatnoma bo‘yicha to‘lov uchun jami	—	

3. To‘lov uchun umumiy summa ____ (_____) so‘mni tashkil qiladi. Soliq ko‘rsatkichlari: QQSsiz qiymat _____so‘m;
QQS stavkasi _____; QQS summasi _____so‘m;
QQS bilan qiymat _____ so‘m. QQS hisoblash uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda tegishli asos ko‘rsatiladi: _____.

4. Qatnashchi Tashkilotchiga Hisobot asosida hisob-faktura taqdim etadi. To‘lov Ofertaning 2.4.3-bandi tartibida hisob-faktura rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 14 (o‘n to‘rt) kalendar kuni ichida amalga oshiriladi. Ushbu dalolatnoma to‘lov muddatini o‘zgartirmaydi va Hisobot, dalolatnoma va hisob-fakturani Oferta tartibida to‘g‘rilashga to‘sqinlik qilmaydi.

5. Terminallar, aylanmalar va mukofotlash bo‘yicha tafsilotlar Hisobotda mavjud. To‘g‘rilash ishchi guruhi qarorining rekvizitlari: _____.

6. Mazkur dalolatnoma Aksiyada qatnashish natijalarini va mukofot hisoblanganligini tasdiqlaydi. U Ofertaning alohida aksepti sanalmaydi.

Ilova: Tashkilotchining “__“ _____ 20__ yildagi ____- son Hisoboti, __ betda.

TASHKILOTCHI
“Milliy banklararo protsessing markazi” AJ

_____/ _____
Lavozim, imzo, F.I.O.

M.O‘. (mavjud bo‘lsa)

QATNASHCHI
_____

STIR _____
h/r _____
Bank _____
MFO _____
_____/ _____
Lavozim, imzo, F.I.O.
M.O‘. (mavjud bo‘lsa)